

CHET TILLARIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

Mamadiyorova Sevinch Maxamat qizi

Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi
Samarqand davlat chet tillar instituti

ARTICLE INFO.

Abstract:

Keywords: speaking, omma oldidagi qo'rquv, Grammatik qoidalar, vocabulary, muloqot, birikma, you tube, speaking assistant, qisqa videolar.

Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishda muhim bo'lgan yo'naliishlardan biri gapirish qobiliyatini rivojlantirishda ko'pgina muammolarga sabab bo'lувchi insondagi o'ziga ishonmaslik tuyg'usi, omma orasidagi hayajon, grammar, listening, vocabularyning o'rni va ularga yechim bo'la oladigan qoidalar yoritiladi. Hamda bu mavzu doirasida buyuk shaxslarning fikri va qarashlariga ham to'xtalib o'tiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

KIRISH. Hozirgi kunda chet tilini o'rganish hamda o'rgatish masalasining dolzarblilik ahamiyati tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, bu borada birinchi navbatda chet tilidagi og'zaki nutqni o'rganish, uni har jabhada tatbiq etish va keng miqyosda rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda chet tiliga bo'lgan munosabat juda ham jadal rivojlanmoqda. Nafaqat oliy ta'lilda, maktab va kollej, litseylarda balkim muktabgacha bo'lgan ta'lilda ham chet tillariga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda.

Chet tilini o'qitish ruhshunoslaringin nazariy fikr-mulohazalariga ko'ra, nutq muloqot jarayoni emas, so'zlash yoki gapirish ham emas, nutq- gapirish yang'lig' faoliyat chog'ida fikrning ro'yobga chiqishi va ifoda qilish usulidir. Chet tilini o'rganishda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shakllantirishning eng samarali vositalardan biri muloqot jarayoni hisoblanadi. Biz qanchalik biror bir tilni grammatiskasini mukammal bilmaylik, qanchalik lug'at boyligimizni kengaytirmaylik , o'sha tilda boshqalar bilan muloqot qilmagunimizcha ravon va to'g'ri gapira olmaymiz. Bilimlarimizdan amaliyotda foydalansakgina nutqimiz shunchalik ravon bo'ladi. Misol qilib dunyo tillaridan biri bo'l mish ingliz tiliga to'xtalsak. Bugungi kunda qayerga bormaylik nima ish qilmaylik, ingliz tili biz uchun zarur bo'lib qoldi. Albatta, bu tilda mukammal gaplasha oluvchilar ham yetarli darajada. Xo'sh, ular bu natijaga qanday erishgan? Grammatika ularga qanchalik kerak bo'lgan? Ular qanday qilib hayajonsiz begona shaxslar orasida nuqson siz gapiraolishadi?

Birinchi navbatda siz bilishingiz kerak bo'lgan 3 ta nutq qoidalari!

Grammatikani ko'p o'rganmang . Bu qoida ko'pchilik uchun g'alati tuyulishi mumkin, ammo bu eng muhim qoidalardan biridir. Agar siz imtihonlardan o'tmoqchi bo'lsangiz, grammatikani o'rganing. Biroq, agar siz ingliz tilida yaxshi muloqot qilmoqchi bo'lsangiz, unda siz grammatikani o'rganmasdan shu tilda ko'proq gapirishga harakat qilishingiz kerak. Grammatikani o'rganish sizni sekinlashtiradi, chalg'itadi va

inglizcha fikirlashingizni pasaytiradi. Bu esa sizga savol bergen odamning javoblariga o'ylanib hamda ikkilanib javob berishingizga sababchi bo'ladi. Ya'ni siz "to'g'ri javob berdimmikan" , "grammatik xato qilmayabmani" deb o'ylanib qolasiz. Siz jumلالарни yaratishda tabiiy ravishda mahalliy gapлarnи aytish o'rniga qoidalar haqida o'ylaysiz. Shunisi qiziqki, ingliz tilida so'zlashuvchilarning boryo'g'i bir qismi barcha grammatika qoidalarining 20% dan ko'prog'ini biladi. Ko'pgina til o'rganuvchilar ingliz tilida so'zlashuvchilarga qaraganda ko'proq grammatikani bilishadi. Agar-da siz savol bersangiz ularda, albatta, to'xtam bo'ladi. Gapirishga ikkilanib qolishadi.

Iboralarni , gapлarni yozib yodolmang. Kuzatishlarimdan kelib chiqib aytsam, ko'pchilik til o'rganuvchilar o'rgangan so'zlaridan(ya'ni vocabulary) qanday foydalanishni bilishmaydi. Shunday insonlar borki, ularning ko'p so'z bilishi meni hayratda qoldiradi. Ammo, ular bitta gapni to'g'ri tuza olishmaydi. Buning sababi shundaki, deyarli ularning barchasi til o'rganish davomida gapлarni daftarga tuzib yodolishgan. Bu esa miyyada avtomatik ravishda gap tuzish va fikirlash qobiliyati susayishiga olib kelgan. So'z o'rganishda ularni yolg'iz o'zini emas biror bir jumla bilan qo'shib o'rganing va shu o'rgangan so'zingiz bilan og'zaki gapлar tuzib kundalik hayotda qo'llang. Shunda ularni daftarga yozishga muhtoj bo'lmay siz.

Collocations(so'z birikmalari). Bolalar tilni o'rganganda, ular ikkala so'z va iboralarni birgalikda o'rganadilar. Xuddi shunday, siz ham iboralarni o'rganishingiz kerak. Agar siz 1000 ta so'zni bilsangiz, bitta to'g'ri gapni aya olmasligingiz mumkin. Ammo agar siz 1 ta iborani bilsangiz, yuzlab to'g'ri jumлаларни yaratishingiz mumkin. Agar siz 100 ta iborani bilsangiz, qancha to'g'ri gapлarni aya olalingizga hayron qolasiz. Va nihoyat, agar siz atigi 1000 ta iborani bilsangiz, siz deyarli ingliz tilida so'zlashuvchi bo'lasiz. Ingliz tilida so'zlash asoslari bo'limi bitta ibora bilan ko'p sonli jumлалар yaratishning ajoyib namunasidir. Shuning uchun turli xil so'zлarni o'rganish uchun soatlab vaqt sarflamang. Buning o'rniga o'sha vaqtдан iboralarni o'rganish uchun foydalaning.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYASI. Amerika olimlari Mr Welles o'zining "The Orator's guide or rules for speaking and composing" asarida speakingning muhim bo'lgan turlaridan biri pronunciation haqida so'z yuritganlar. Pronunciation bu "talaffuz" demakdir. Pronunciation harakat deya atalishini ,uningsiz nutqimiz ravon chiqmasligini va talaffuzimiz qanchalik chiroli bo'lsa, atrofdagilarni ham nutqimizga jalb qila olishimizni aytib o'tgan. Hind olimi o'zining Aittik Chandra "Golden rules of public speaking" asarida yaxshi nutq so'zlash uchun odam uzoq vaqt mashaqqatli o'rganishdan ko'ra, g'ayrioddiy tabiiy iste'dodga ega bo'lishi kerak degan o'yning xato ekanligini aytgan. Hattoki nutqni yaxshi bo'lishi inson kayfiyatiga ham bog'liqligini, qo'rquv va hayajon bo'lmasligi kerakligini aytganlar. Yana bir German olimi Reader's Digest Association "Write better, speak better" asarida esa inson nutqini rivojlantirishda bitta so'zning turli xil antonimlarini, hamda sinonimlarini qo'llash kerakli haqida aytib o'tilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Keling, endi speaking borasida qilinadigan xatolarni ko'rib o'tamiz. Eng birinchi o'rinda, yangi til o'rganuvchilariga qiyinlik tug'diradigan narsa bu "pronunciation" ya'ni talaffuz. Ingliz tilida shunday so'zlar borki shakl jihatidan o'xshash ammo talaffuz qilinsa bir nechta ma'no anglatadi.

Ikkinchidan, insondagi qo'rquv va o'ziga ishonmaslik tuyg'usi. Til o'rganuvchilar o'rtasidagi ko'p uchraydigan holat, begona odamlar davrasida gapiraolmaslikdir. Buday holat albatta yetarlicha muloqot qilmaslikdan kelib chiqadi. O'zingizni bilish juda muhimdir. Shundagina siz eng yaxshi spektaklingizni qo'yishingiz mumkin. O'zingizning kuchli tomonlaringizni tahlil qiling va ularni yaxshi ko'rsating. O'zingizning zaif tomonlaringizni o'rganing va ular ustida ishlang. O'zingizni bilsangizgina o'zingiz bo'la olasiz - va bu yaxshi notiq bo'lish uchun birinchi qadamdir. Aniq muloqot - aniq muloqot qiling. Gapirayotganingizda mazmuningiz aniq va taqdimotingiz yanada aniq bo'lishi kerak. Bunga erishish uchun sizdan katta tayyorgarlik talab etiladi. Tayyorlikni hech narsa almashtira olmaydi. Notiqlarning eng buyuklari o'zlarining dalillari va raqamlarini tayyorlaydilar va bu faktlarni mukammal bajarish uchun, hatto eng yaxshi notiqlar ham bir vaqtning o'zida oyna yoki oila yoki do'stlar oldida mashq qiladilar.

Ijtimoiy tarmoqlardan chet tilida gapirish qobiliyatizingizni oshirishda foydalaning. Hozirgi kunda biz deyarli kunimizning yarmini telefonda yoki kompyuterlarimizda you tube , instagram , telegram dasturlariga sarflaymiz. Ulardagi keraksiz videolar o'rniga inglizcha motivatisya beruvchi subititrli (matnli) videolarni ko'rish bizga nafaqat gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda balki tinglab tushinish ko'nikmasini o'sishigaham katta yordam beradi nazarimda. Misol qilib You tube platformasidagi "kurgezsagt" kanalini aytsam yanglishmayman. Bu kanalda turli xil inglizcha videolar joylashgan bo'lib, u bizga talaffuzimizni yaxshilashga , inglizcha fikrlash salohiytaimizni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari "Speaking assistant" havolasi o'z ustimizda ishslash orqali nutqimizni rivojlantishda qo'l kelmoqda.

XULOSA. Til o'rganish qattiq mehnat talab qiladi. Nutqimiz ravon hamda chiroyli bo'lishi uchun chet tilida badiiy asarlar, qo'lyozmalar, maqolalar o'qishimiz zarur. Qanchalik ko'p kitob o'qisak, shunchalik fikrlashimiz o'sadi. Har bir savolga miyyamiz avtomatk ravishda inglizcha fikirlab javob beradigan bo'ladi. Ko'p lug'at yodlab ularni qo'llay olmaslik kabi tushinchalar yo'qoladi.

Reference

- Welles "The Orator's Guide or Rules for Speaking".
- Aittik Chandra "Golden rules of Public Speaking".
- Reader's Digest Association "Write Better, Speak Better" 1977.
- Osiyo Tinch Okeani Boshqaruv Instituti rahbarlarining so'zlari.
- Suleymanova, N., & Tuychiev, S. (2024, February). THE LINGUISTICS ASPECTS OF THE SPEECH UNITS AND ITS NOMINATIVE FEATURES. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 292-294).
- Furkatovna, B. I. (2023). DISCURSIVE-PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF ARTICLES EXPRESSING THE ETIQUETTE OF COMMUNICATION (ON THE EXAMPLE OF KOREAN AND UZBEK LANGUAGES). Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, (1), 24-29.
- Bayanxanova, I. F. (2023). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS IN UZBEK, KOREAN AND ENGLISH. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, (1), 18-21.
- Shokhrukhovna, U. S., & Zafarovna, A. D. (2024). TYPES OF METAPHOR AND ITS CREATION. World scientific research journal, 23(1), 136-141.
- Rajabov, M. (2024, February). HOW TO TEACH VOCABULARY IN PRE-SCHOOL AND SCHOOL. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 31-33).
- Nasrullaeva, N. Z. (2016). Gender conceptualization of English phraseological units. International Journal of Advanced Research, (4), 9.
- <https://humoscience.com>
- <https://www.vocabulary.com>